

## 5-SINF ONA TILI DARSЛИGI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

G`afforova Aziza JDPI 304-guruh talabasi,

Ilmiy rahbar: Usmonov Aslam

Mamlakatimizda chet tillariga e`tibor katta. Ammo o`zga tillarni o`rganishdan oldin, o`z ona tillarini bilishi lozim. Bunda maktab darsliklari muhim rol o`ynaydi. Yildan-yilga yangi darsliklar yangi uslublar bilan nashr qilinmoqda. Shu darsliklardan 2020-yilgi 5-sinf darsligiga to`xtalib o`tmoqchiman. Bu darslikda turli xildagi metodlardan foydalanilgan. Bularдан:1) Rang-barang rasmlar. 2) Darsslarni soddalashtirgan holda mavzular joylashgan. 3) Lug`atlar keltirilgan. 4) Mavzuga doir she`r, maqol,hikoya va hikmatli so`zlar keltirilgan. 5) Allomalarimiz rasm va hayotlari kiritilgan. Va shu kabi bir qancha o`quvchiga foydali dars va ma`lumotlar mavjud. Ammo ba`zi e`tibordan chetta qolgan mashq va topshiriqlar bor ekan. Ularni o`zgartirib,to`g`rilashni lozim deb o`ylayman. Bular: Matnlar juda ko`p. O`quvchilarni zerkadiradi. Fonetika mavzusidan 83-mashqda fonetikaga umuman aloqasi yo`q. Uy ishi sifatida kiritilgan ekan.Gaplarni davom ettirish: 1) Men o`zga sayyoralik bilan uchrashib qolsam Bu gap juda antiqa va erish tuyiladi. 117-mashqda kirill yozuvidagi maqollarni lotin yozuviga o`giring deyilgan. Bu o`quvchilarga qiyinlik qilishi mumkin. 4-mashqda ham shunga o`xhash mashq takrorlangan. Leksikologiya mavzusida 262-mashqda qavsdagi so`zlardan gapga mosini qo`yish kerak ekan. Ammo bularni mosini ajratib olish mushkul deb bilaman. 1) Yer ichida (tila, oltin, zar) bor, qaziyversang topasan. 283-mashqda burj va burch haqida izohlangan va burjni jadvali berilib,o`z burjingizni aytинг deyilgan. Bu narsa keraksiz. 291-mashqda 4guruhsiga bo`linib 1-guruhsiga o`zbek,2-guruhsiga arab, 3-guruhsiga fors, 4-guruhsiga yevropa tilidan o`zlashgan so`zlar keltirish kerak ekan. Bu yoshdagagi bolalar ko`p so`zlarni aynan qaysi so`zdan o`zlashganini bilmaydi. 328-mashqda so`zlarni ko`chirish, izohlarini yod olish. Bu so`zlar: Akkaunt, bloger, avatarka kabi so`zlar. Bu so`zlar o`quvchilar bilmaydi va qiziqmaydilar. 405-mashqda Imloviy to`g`ri yozilgan so`zlarni toping deb test keltirilgan. Ammo B va D javoblari bir xil.Bu mashq imlo haqida bo`lsa ham,ammo imloviy xatolik bilan bir xil javob berilmasligi lozim edi. Virus haqida matn va

mashqlar keragi yo`q. Bu bolalarni ruhiyatiga ta'sir qiladi. Maqollar va Hikmatli so`zlar haqida 2tadan mavzu berilgan.Ko`p mashqlarda ularni izohlang deyilgan.Bu bolalarni zeriktiradi. 362-mashqda rasm bilan ishlab maqolni chiqarish kerak.Ammo bitta maqol chiqadi. Agar ko`p rasmlar va ko`p maqollar chiqaradigan mashq qilinsa yaxshi bo`ladi. Bu bolalarni tafakkurini rivojlantiradi. 115-darsda Munosabat bildiring. Maktabingiz kutubxonasida qanday lug`at bor? Ulardan foydalanaszimi? 415-mashqda Kutubxonalar qanday bo`lishi kerak? Shu haqida fikr bildiring deyilgan. Bu savollar g`alati. Bu yoshdagi o`quvchi hali kutubxonalar haqida to`liq fikrga ega emas. 122-darsda matnga doir savollar berilgan. Afg'onistonda yashayotgan o'zbeklar o`rnida bo`lishni istarmidingiz? Bu savol o`quvchiga berilishi nomaqbul.